

**MATNLARDA OBRAZLAR SILSILASI VA ULARNING LINGVOPRAGMATIK TALQINI****Zokirova Sohiba,***PhD***Raximjonova Gulnoza***o'qituvchi,***G'ofurova Dilorom***talaba, Farg'ona davlat universiteti*

Annotatsiya.: *Ushbu maqolada lingvopoetika yo 'nalishining til tadqiqidagi ahamiyati, tilshunoslikni bir qancha fanlar qatori adabiyot bilan ham uzviy bog'liqliklari masalalari haqida so'z yuritiladi. Lingvopoetika yo'nalishi til tadqiqida paydo bo'lgan yangi sohalardan biri bo'lib, badiiy asarlarda qo'llanilgan lingvistik birliklarning badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini o'rganadi.*

Аннотация: *В данной статье речь пойдет о значении развития лингвопоэтики в изучении языка, о неразрывной связи языкознания с литературой. Направление лингвопоэтика-одно из новых направлений в изучении языка, определяющее художественно-эстетические задачи языковых единиц, используемых в художественных произведениях, коннотативную функцию языка изучается.*

Annotation: *In this article, we will talk about the importance of linguopoethics in Language Research, the question of the inextricably linked linguistics with literature among several disciplines. The direction of linguopoethics is one of the new areas that appear in the study of language, which includes the artistic and aesthetic functions of linguistic units used in artistic works, the connotative function of the language.*

Kalit so'zlar: *lingvopoetika, lingvistik birliklar, metafora, badiiy-estetik vazifalar, grammatik vosita, leksik poetika, sintaktik poetika, pragmalingvistika.*

Ключевые слова: *лингвопоэтика, языковые единицы, метафора, художественно-эстетические задачи, грамматический инструментарий, лексическая поэтика, синтаксическая поэтика, прагмалингвистика.*

Keywords: *linguopoethics, linguistic units, metaphor, artistic-aesthetic functions, grammatical tool, lexical poetics, syntactic poetics, pragmalinguistics.*

Badiiy adabiyot san'atning boshqa turlaridan aynan "so'z san'ati" ekani bilan ajralib turadi. Badiiy so'z va ularning turli shakldagi birikuvlaridan badiiy matn maydonga keladi. Badiiy adabiyot uchun obrazli tafakkur va tafakkur tarzi uchun estetik ta'sirga ega so'z muhim sanaladi. Bu lisoniy belgilar peysaj yoki bior qahramonning tar'rif- tasnifi ,yoki badiiy matnda obraz yaratishning eng muhim omiliga aylanadi.Quyidagi misolda buni ko'rish mumkin.

Cho'lponning "Kecha- va kunduz" romanidan olingan Ko'plar og'izlari bilan tingladilar shaklidagi matn mantiqsiz hisoblanadi, chunki tinglash uchun "qurol" og'iz





emas, balki quloqdir. Ammo Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidan olingan parchada bu jumla betakror badiiy obraz tasviriga aylangan. *O'tirganlar bir seskanib oldilar.-Qanaqa pul,taqsir? –dedi Matxoliq amin.Hammaning ko'zi uning og'ziga tikilgan edi, undan keyin hamma ko'zlar birdaniga mingboshi tomonga burilib, uning og'ziga osildilar. Ko'plar og'izlari bilan ham tingladilar.*Ijodkor noxush va shum xabarni hayronlik va chorasizlik ichida og'izlari ochilib qotgan ko'yi eshitmoqning badiiy rasmini shu tarzda chizgan.Yana bir o'rinda mahoratli yozuvchi Cho'lpon Zebining bor vujudi bilan tinglaganini chizmasini chizadi.

Ikkala xotin ovozlari picha ko'tara tushub xotinlar qiy- chuv orasida suhbatda bemalol davom etdilar, Zebining qulog'i ham go'yo derazaga osilib qoldi[1, 272]. Romanning yutug'i shundaki undagi obrazlar juda tabiiy va jonli chiqqan. Shu obrazlardan biri Razzoq so'fi.Bu odam jadidnoma bir hamshaharining deganidek" ko'rgazmaga qo'yilaturgan antiqa mahluqlardan edi" deb ta'riflaydi. Razzoq so'fining qiyofasini , asl basharasini uyidagi munosabatlarda ham ko'rish mumkin.O'zbeklarda axir har bir erkak o'z xotini- o'z halol juftini qizi yo o'g'lining nomi bilan atab chaqiradi. O'z xotining ismini aytib chaqirish yaramaydi. Xotinning ismi Maryam, qizining ismi Hadicha bo'lsa, mo'min – musulmon:- sharm- hayo yuzasidan bo'lsamikan?- xotinini " Xadicha " deb chaqiradi.Bizning so'fi mo'min- musulmonlarning bu urfiga amal qilmaydi, U o'z jufti halolini hamma vaqt "Fitna" deb chaqiradi.San'atkor borki, yaratayotgan qahramonini shu darajada mukammal o'rganadiki, xarakter asosi bitta so'zga jo bo'ladi. Shunday qalami o'tkir ijodkorlardan biri Abdulla Qahhordir. Uning ixcham hikoyalaridagi tasvir xuddi bir so'z bilan tasvirlanadi.Uning "To'ydagi a'za" hikoyasida Muxtorxon domla uylanayotgan qizga – kelin, darhaqiqat, yosh, lekin xuddi qiziqchilikka semirganday yum- yumaloq; egnida yengsiz qizil ko'ylak,boshida po'pishakning tojiga o'xshagan, lekin qizil shlyapa; qo'lidagi sumkasi, oyog'idagi poshnasi bir qarich tuflisi ham qizil.Uni adovat va nafrat bilan boshdan ayoq kuzatgan ayollardan biri, burilib ateledan chiqib ketar ekan:Xo'rozqandga o'xshamay o'l[2]!- deydi.Birgina lisoniy birlik xo'rozqand so'zi yuqorida tasvirlangan yosh kelinning tasvirini chizmasini chizish uchun juda mos tanlangan. Yana bir ijodkorimiz Said Ahmadning "Qoplun" hikoyasida Qurbonboy yangi rahbarning charm to'nini artib oldingi rahbariga qarab ham qo'ymaganida Tillayev Qoplunni ko'rib Bu itni taniyman desa-da, achchiq istehzo bilan aytilgan bu so'zlarni asli Qurbonboyga qarab qo'yib aytadi. Demak, "it" deb Qurbonboyni nazarda tutadi.Yozuvchi bu bilan Qurbonboylar kabi buqalamun kimsalar, ablah odamlarning jamiyatda, insonlar orasida o'rni bo'lishi kerak emas, degan g'oyani ilgari suradi.Obrazlarni badiiy matnda ta'riflashda yozuvchining pragmatik maqsadi yaqqol ko'zga tashlanadi.O'zi tasvirilayotgan qahramonga nisbatan ijobiy yoki salbiy fikrdaligini qahramon tasviridan va u qo'llagan lisoniy birliklardan ham bilsa bo'ladi.

Bunga misol tariqasida Cho'lponning " Kecha va kunduz " romanidagi " chakka suyaklari turtib chiqqan, peshona bo'yiga tor, eniga keng va ham uzun- uzun uch chuqur ajinga ega... Burun o'rtacha, lekin qanshari past....Ko'z qisilibroq kelgan, parda





tomirlaridan ikki- uchtasi va ham ikkala ko'zining bir yonida jindek joyi hammavaqt qizil, bir ko'zida picha shapag'lik asari ham bor... Iyak keng, jag'- sergo'sht. Juda siyrak bo'lgan soqol iyakning o'rtasigagina to'planib echkiniki singari, pastga tomon sangillab tushgan. Mo'ylov ham soqol singari siyrak bularning yarmidan ko'pi yiqitilgan daraxtzor singari xunuk ko'rinadi, ikki uchida oltitadan o'n ikkita uzun qil, sichqonning dumuday, ingichka bo'lib pastga cho'zilgan" Soqol, mo'ylovini yig'ishtirib qo'ygan usta To'xtash "san'at – san'at uchun" degan nazarda Akbarali mingboshiga qaraydi [1, 162].


Ijodkor tomonidan yaratilgan badiiy matnda peysaj tasviri ham alohida o'rin tutadi. Yozuvchi shunday lisoniy birliklarni qo'llaydiki, u insonga estetik zavq berish bilan birga ekspressivlikni oshirishni ham ta'minlaydi. Har yili keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi...

Tollarning ko'm-ko'k sochpopuklari qizlarning mayda o'rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g'amli yuzlari kuldi, o'zlari horg'in- horg'in oqsalar-da, bo'shalgan qul singari erkinlik nash'asini kemira- kemira ilgari bosdilar. Simyog'ochlarning uchlarida yakka- yakka qushlar ko'rina boshladi. Birinchi ko'ringan ko'klam qushu birinchi yorilgan bodroq nash'asini beradi. Bultur ekilib, ko'p qoshlarni qoraytirgan o'sma ildizidan yana bosh ko'tarib chiqdi.... Muloyim qo'llarda ivib, suvga aylangandan keyin go'zal ko'zlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko'rar ekan bu ko'kat! [1, 9]

Ushbu sintaktik butunlikdagi ko'ngillarni qitiqlay boshladi, qon yugurdi, suvlarning g'amli yuzlari kuldi, bosh ko'tarib chiqdi, ko'zlarning supasida yonboshlashni kabi insonga hos birliklar ko'chma ma'noda qo'llanib metafora usulini hosil qilgan. Peysaj tasvirining jonli chiqishini ta'minlagan. Quyidagi misolda buni aksini ko'rish mumkin. Supa ustida pashshaxona ichida Tursunboy barq urib uxlab yotibdi. Aksincha bu sintaktik butunlikda tabiatga xos xususiyatlar insonga o'tgan. Aslida barq so'zi gurkirab o'sish yoki yashnash va ochilish ma'nolarini beradi. Bu bilan yozuvchi mantiqsizlikka yoki uslubiy g'alizlikka yo'l qo'ymagan. Bu yerda uxlab yotgan Tursunboyning shunaqngi rahotda va qattiq uyquda uxlayotganligini ekspressivlik tarzida ifodalagan. Badiiy asarda inson yoki tabiat ma'lum bir muhit va uni qurshab turgan olam bilan birgalikda tasvirlanadi. Bunda lisoniy birliklarni badiiy nutqda o'z o'rnida qo'llash matnning jonli chiqishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kecha va kunduz. Cho'l'on.- Toshkent: Go'fur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.- 272 b.
2. Abdulla Qahhor. Qissa va hikoyalar. - Toshkent: Go'fur Gulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2005.
3. Qosimova M. Badiiy nutq individualligining lingvistik xususiyatlari (Tog'ay Murod asarlari asosida): Filol.fanlari d-ri....dis. – Toshkent, 2007.





4. Tanlangan asarlar III jild. Said Ahmad.- Toshkent: "Sharq" nashriyot- matbaa konserni bosh tahririyati, 2000.
5. Said Ahmad.Ufq.- Toshkent:"Sano- standart" nashriyoti, 2019.
6. Usmanova, O. S. (2022). National curriculum and new generation mathematics textbook. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(2), 11-16.
7. Shuxratova, Y. (2021, March). DRAMATIC WORKS AND THE SAD CONCEPT OF SPEECH. In *Archive of Conferences* (Vol. 17, No. 1, pp. 266-268).
8. Nabijonova, F. (2022). Boshlangich sinflarda didaktik oyinlarning ahamiyati: Nabijonova Feruza. *Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi*, 1(000006).
9. Gulnoza, R., & Lola, K. (2022). OBRAZLAR TALQINIDA LINGVISTIK IMKONIYATLAR. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 3), 91-95.
10. Юлдашева, Д. М., Асқарова, Д., & Зоҳидова, М. (2021). Ўзбек болалар нутқига доир матнларда лакуна. *Academic research in educational sciences*, 2(2).